



MAQSUD SHAYXZODA UMR YO'LI VA SO'NMAS ASARLARI

Ikranova Feruza Xayrullayevna

*Toshkent Davlat Transport Universiteti Avtomobil yo'llarini
qidiruv va loyihalash kafedrasi dotsenti*

Sanjarova Marjona Sanjar qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti YMSH-6 guruhi talabasi

Annotatsiya: Mashhur shoir Maqsud Shayxzoda umri davomida sermazmun va sermahsul ijod qilgan shoir sifatida ozarbayjon va o'zbek adabiyotida o'zing o'lmas asarlari bilan xalqimiz qalbidan joy oldi. Maqsud Shayxzoda asarlari shu kung qadara ko'plab kitobxonlar tomonidan sevib o'qilib kelinmoqda. Hozirgi kunda ko'plab joylarga Maqsud Shayxzoda nomi berilgan. Uning nomiga "Maqsud Shayxzoda maxsus stipendiyasi", medal ham ta'sis etilgan.

Kalit so'zlar: hayoti , asarlari , tarjima ,she'riy to'plamlar , kitoblar , falsafa , adiblarning fikri , ocherklar, ijodiy do'stlari.

Abstract: The famous poet Maqsud Shaykhzada, as a poet who created a rich and fruitful work throughout his life, took a place in the hearts of our nation with his immortal works in Azerbaijani and Uzbek literature. Maqsud Shaykhzada's works are still loved by many readers. Today, many places are named after Maqsud Sheikhzadeh. "Maqsud Sheikhzada special scholarship" and a medal were also established in his name.

Keywords: his life, works, translation, poetry collections, books, philosophy, thoughts of writers, essays, creative friends.

KIRISH

Хар ким ўз шаҳрида қўйган эсдалик:

Ё бино қуришида катта усталик,

Ё ширин латифа ёки ихтиро,

Ё дарахт, ё фарзанд, қўприк, ё мисра

Ё қўшиқ, ё дори, мактаб, соғчилик,

Хулоса: дунёда бирон яхшилик...

Darhaqiqat shoir o'z satrlarida aytganidek, har kim o'z yurtida o'z davrida yashab hayot yo'lida o'ziga yarasha iz qoldiradi. Mashhur o'zbek va ozarbayjon



shoiri Maqsud Shayxzoda Maxsunbek o'gli ham o'zining asarlari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy egalladi.

Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Boshlang'ich va o'rta ma'lumotni Oqtoshda oldi va keyinchalik Boku Oliy pedagogika institutida sirtqi ta'lim turida o'qiy boshladi. 1925-yildan boshlab Darband shahrida muallimlik bilan shug'ullanishni boshlagan. Bokudagi doril-mualliminni tugatgan (1925). Dastlab Darbanddagi I-bosqich ozarbayjon maktabida, Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1927-yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida hibsga olinib, 1928-yil fevralda Toshkentga surgun qilingan. Shayxzoda O'rta Osiyo universitetining Sharqshunoslik fakultetida qisqa muddat o'qigani (1928)dan keyin „Sharq haqiqati“ (1929—32), „Qizil O'zbekiston“, „Yosh leninchi“ gaz.lari (1932), „Guliston“ jurnali (1933—34) tahririyatlarida xizmat qilgan.

Shoirning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlanib, „O'n she'r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovoqli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

1958 yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi «Toshkentnoma» lirik dostoni yaratildi. Iste'dodli dramaturg 1960 yilda yozgan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida buyuk o'zbek munajjimi va ma'rifatparvar podshosi obrazini yaratdi.

Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan. 1941-yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e'lon qilgan Sh. umrining so'nggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug'ullanib keldi. U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan „Navoiyning lirik qahramoni haqida“ (1948) maqolasidan keyin „Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida“ (1959), „Ustodning san'atxonasida“ (3 qismli maqola, 1965—66), „G'azal mulkining sultoni“ (1966), „Tazkirachilik tarixidan“ (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Sharqda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib, o'zbek xalq og'zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy



Ganjaviy, Sh. Rustaveli, A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, A.P. Chexov singari namoyandalariga bag‘ishlangan asarlar yozdi.

Yaxshi bilasiz, ziyo degani nur, yorug‘lik, oydinlik demakdir. Haqiqatan ham ziyolilarimiz elga bilim, ma‘rifat, madaniyat ulashish, ta‘lim-tarbiya berishdek savob ishlarga da‘vat etilgan...” Bu so‘z bilan go‘yo sehrlangan majlis zalida o‘tirganlar gulduros qarsaklar chalib yuborishgan edi. U qisqa hayot kechirdi – 60 yoshga ham to‘lmay, 1967-yil 19-fevral kuni uzoq vaqt davom etgan xastalikdan so‘ng olamdan ko‘z yumdi. Shayxzoda ijodi eng gullagan paytda, shiraga to‘lgan vaqtda olamdan ketdi.

Maqsud Shayxzoda bilan birga saboq olgan yozuvchi va tarjimon Mirzakalon Ismoilov o‘z xotiralarida shunday yozadi:

“Maqsud o‘zbek tilida ozariy lahjada gapirardi. Ozar va turk so‘zlaridan faol foydalanardi. U chuqur savodi va insoniy fazilatlari uchun talabalar orasida katta hurmat qozongandi. Maqsud havas va ehtirom bilan o‘zbek tili, tarixi, sharq madaniyatini o‘rgangan edi. Darslar tugashi bilan ertangi kunga tayyorlana boshlar, kitob o‘qir, konspekt yozar, keyingi mavzular bilan bog‘liq kitoblarni titkilar, muallimlarga savollar hozirlardi. U savollarni o‘qituvchilarga yozma tarzda berar, bu esa domlamiz Muxtor Avezovga maroqli edi. Maqsud nima uchun savollarini yozma tarzda berishining sababini bilgach, domlamiz lol qolgandi. Maqsud muallim savolning javobini bilmasa, boshqa talabalar qarshisida noqulay vaziyatda qolmasin uchun savollarni yozma tarzda berarkan.”

Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Shayxzoda asarlari dunyoning bir necha tillariga puxta o‘girilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
2. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
3. S. Mirvaliyev, R. Shokirova “O‘zbek adiblari” G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti T., 2016.
4. <https://oz.sputniknews.uz/>
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983;
6. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.